

AVRANGZEB OLAMGIR SHAXSIYATI

Mo'minov Xikmatillo Chari o'g'li
Norov Kamoliddin Bayramali o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyo tarixida "buyuk mo'g'illar" nomi bilan mashhur bo'lgan Boburiylar saltanatining buyuk hukmdori Avrangzeb Olamgir shaxsiyati, uning fazilatlari va Hindiston musulmonlari hayotida tutgan o'rni mahalliy hind va boshqa yurt olim mutafakkirlari asarlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Avrangzeb, Toj Mahal, Olamgir, Murshid Kulihon, Maosiri Olamgiri, Fatovoyi Olamgiriya.

Avrangzeb shaxsiyatining o'rganilish sabablari.

Hindistondan ulkan diyorda salkam yarim asr (1658-1707) hukmronlik qilgan Avrangzeb Olamgir shaxsiyati tarixshunoslikda bahsli mavzulardan sanaladi. Avrangzeb boburiylar sulolasiga mansub bo'lib, mashhur Toj Mahalni bunyod ettirgan Shoh Jahonning o'g'li hisoblanadi. G'arb manbaalari va hind tarixchilarining asarlarida ham Avrangzebga nisbatan salbiy munosabat, uning sha'niga nomunosib ta'riflarni ko'rish mumkin.

Ammo haqiqatda shunday bo'lganmi, degan savol qiyinaydi. Avrangzeb shaxsiyatini musulmon tarixchi, mutafakkirlar ma'rifatli, islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan, taqvodor hukmdor deb hisoblaydi.

Avrangzeb shaxsiyatiga ilmiy xolisona yondashib, bu shaxsiyatni bolaligidan umrining so'ngigiga qadar bo'lgan davrida amalga oshirgan ishlari, fazilatlarini bayon etishlikni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Aslida Avrangzeb kim bo'lgan, qanday inson bo'lgan, degan savol va bu savolga javob topish ishtiyoqi Avrangzeb shaxsiyatini o'rganilishining asosiy sababidir.

Ismi va nasablari

Avrangzeb Olamgir - asl ismi Abu Muzaffar Muhyiddin Muhammad 1618-yilning 4-noyabrida Hindistonning Gujarot viloyatidagi Dohad shahrida tug'ilgan. U Zahiriddin Muhammad Boburning avlodlaridan Shohjahon va Mumtoz Mahalbeginning o'g'li edi. Forscha "Avrangzeb" so'zi "toj-taxt bezagi" ma'nosini bildirsa, "Olamgir" esa "olamni zabt etuvchi" ma'nosidadir.

Avrangzebning bolaligi

Shohjahonning ancha zakovatli va ziyrak uchinchi³⁴ o'g'lining ta'limi haqida jiddiy qayg'urib, o'z davrining eng mashhur olim va ustozlarini saroyga taklif qilgan.

Avrangzeb sakkiz yoshida Qur'oni Karimni yod oladi, hadis va fiqh ilmlaridan chuqur tahsil olgan. U davlat tili bo'lmish fors tilidan tashqari, arab, hind-urdu va turk-chig'atoy tillarini puxta bilib oladi. Bobokaloni Bobur singari kabi adabiyotga mehr qo'ygan va o'zi ham g'azallar bitib turgan. Xattotlikka ham qiziqib, arab xatining nasta'liq va shikasta usullarida mohir xattotlardan qolishmagan.

Saroydagi hashamat, mol-dunyo va mansab fitnalariga qiziqmagan. Asosiy mashg'uloti kitob o'qish va harbiy san'atni o'rganish.

Avrangzebning hokimlik yillari

1636-yili o'n sakkiz yoshga yetganda Dekkon viloyatiga hokim etib tayinlangan. 1644-yili otasi bilan munosabatlari yomonlashgan bu vazifadan bo'shatiladi. Ammo bir yil o'tar-o'tmas ota ishonchini qozonadi va avval Gujaratga, so'ngra Balx va Badaxshonga hokim qilib tayinlanadi. Hokimlik yillari Qandahor uchun jangda forslardan mag'lubiyatga uchrab, tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Bu mag'lubiyat Avrangzebga keyingi muhorabalardagi muvaffaqiyat qozonishida ulkan tajriba bo'lib xizmat qildi.

1652-1657-yillarda yana Dekkonda hokimlik qildi. Hududning iqtisodiy ahvoli juda og'ir ahvolda edi. Murshid Kulihon ismli fors amaldori bilan birga iqtisodiy islohotlar o'tkazdi. Aholiga og'ir kelmaydigan yangi soliq tizimini joriy qildi. Aholining katta qismi tashlandiq qishloqlarga qaytib keldi. Hayot jonlandi.

Avrangzeb va Shoh Jahon o'rtasidagi siyosiy muholifat.

Avrangzeb otasining Islom dini talablariga xilof o'laroq shon-shuhrat, hasham va isrofga o'chligi ota va farzand o'rtasida kelishmovchilikka sabab bo'lgan. Hukmdorning sevimli xotini Mumtoz Mahal sharafiga Agrada hashamatli maqbara - Tojmahalni qurdirgani³⁵ ham Avrangzebga yoqmaydi. U bunchalik mahobatli maqbara qurilishini davlat xazinasini sovurish - katta isrofgarchilik deb atab, buning Islomga zid ekanini aytadi. Buning ustiga Shoh Jahon Tojmahaldan tashqari o'zi uchun ham yana bir muhtasham maqbara qurish taraddudida edi. Bu esa davlat xazinasini bo'shab qolishiga va saltanatning barbod bo'lishiga olib kelishi tayin edi.

Mamlakatning ertasini o'ylagan mohir strateg Avrangzeb saltanatning taraqqiy etishi yo'lida otasiga qarshi borishga majbur bo'ladi.

³⁴ Shoh Jahon va Mumtoz Mahalbeginning to'rtta o'g'li bo'lgan: Doro Shukuh, Shoh Shujo', Avrangzeb va Murod Baxsh.

³⁵ World Heritage Sites – Agra – Taj Mahal". Archaeological Survey of India. Retrieved 4 March 2024

Shoh Jahonga Avrangzebning so'fiylar qabrlarini haddan tashqari ulug'lash, serhasham maqbaralar qurishni xalq ichida qoralagani yoqmas edi.

Avrangzebning hukmronlik yillari.

Otasi undan keyin akalari bilan bo'lgan toj-taxt uchun kurashda g'olib chiqqan Avrangzeb endi ulkan saltanat hukmdori edi.

Avrangzeb quyidagi islohotlarni o'tkazdi:

- Mamlakatda Alloh taolo harom qilgan mayparastlik, giyohvandlik, qimor o'ynash kabi ishlarga chek qo'yildi.

- Tanga pullarga Qur'on oyatlarini yozishni man etildi.

- Faxsh ishlarni oldini olish maqsadida beva ayollarga erga tegish, aks holda mamlakat hududidan chiqib ketish talabi qo'yildi

- Shariat talablarini bajarish-bajarmaslikni nazorat qiluvchi muhtasib lavozimi ta'sis etildi.

- nomusulmonlardan olinadigan soliq - jizya olish tartibi joriy etildi.³⁶

Avrangzeb shaxsiyati haqida uning davrida yozilgan mashhur asarlardan biri Muhammad Musta'idxon Soqiyning "Maosiri Olamgiriyy"("Olamgirning xayrli ishlari") da batafsil bayon etilgan. Ko'pchilik zulm, mutaassiblik deb tushunadigan ba'zi ishlarini asl sabab-mohiyatini anglash uchun shu asar bizga yordam beradi.³⁷

Avrangzeb haqida turlicha fikrlarning bo'lishi sababi unga turli sivilizatsiyalar nuqtai nazaridan baho berilishidir.

Hinduizm e'tiqodida bo'lganlar Avrangzebning musulmon bo'lmagan aholiga, asosan hindlarga nisbatan o'tkazgan siyosati, jizyani joriy qilishi, bir qancha ibodatxonalarni buzdirib tashlashga buyruq berishi va shu kabi voqe'liklar sabab yovuz hukmdor deb bilishadi.

Musulmonlar esa Hindistonda islom dinini turli bid'atlardan uzoq bo'lib, shu paytgacha saqlanib qolishida Avrangzebning rolini to'g'ri fahm etishadi va ma'rifatli hukmdor deb bilishadi.

Jihad at-Turboniy "Islom ummatining 100 buyuk shaxsi" asarida Avrangzebni ham zikr qilib, uning bolaligidagi ustozlaridan biri Muhammad Ma'sum Sarhandiy adolatli xalifa Umar ibn Xattob avlodlaridan ekanini ta'kidlaydi.³⁸ Shayx Ali Tantoviy bu ulug' musulmon haqida shunday degan: «U – adolatli xalifalar davomchisi!»

³⁶ Ahmad Muhammad Tursun. Avrangzeb Olamgir-ma'rifatli hukmdor. "Azon-kitoblari". T: 2021

³⁷ Muhammad Mustaidxon Soqiy. Maosiri Olamgiriyy (Olamgirning xayrli ishlari). Tarjimon: Ilyos Nizomiddinov. T: 2013

³⁸ Jihad at-Turboniy. Islom ummatining 100 buyuk shaxsi / Tarix yo'nalishini o'zgartira olgan islom ummatining 100 nafar buyuk shaxslari / Rahimjon Ali / tarjimonlar: Shokir Dolimov, Xursand Ahmedov. - O'sh: «Shams» nashriyot uyi. / Istanbul: 2020. – 680 bet. – B. 634-637.

Avrangzeb davrida ham ibodatxonalar to'liq buzib tashlanmagan. Faqatgina Avrangzebga siyosiy muxolifatda bo'lganlar o'rnashib olgan ibodatxonalarga shikast yetkazilgan. Avrangzeb mamlakatda ilm-fan, madaniyatni rivoji yo'lida ham ko'pgina ishlarga qo'l urdi. Uning farmoyishi va tashabbusi ila hanafiy mazhabidagi mo'tabar kitoblardan biri "Fatovoyi Olamgiriya" kitobi tayyorlandi. Hanafiy mazhabining o'ziga xos bu fiqhiy qomusi Nizomiddin Burhonpuriy(Shayx Nizom) boshliq 24 nafar olim tomonidan Qur'on, Sunnat, ijmo va qiyosga muvofiqligi tekshirib chiqiladi. Kitob barcha amaldorlarga tarqatilib adolatli boshqaruvni ulkan ahamiyat kasb etdi.

Xulosa.

Avrangzeb iqtisodiy tang ahvolda qolgan ulkan davlatni qudratli mamlakatga aylantirdi. Mamlakatda siyosiy barqarorlik o'rnatdi. Bugun unga salbiy munosabatga bo'ladiganlar ko'p bo'lsada, xolisona fikr bildiruvchi ilm ahli uning haqiqatda ma'rifatli hukmdor ekanini inkor eta olmaydi.

Avrangzeb shaxsiyati o'rganishga, o'rnak olishga arziydigan buyuk shaxsiyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ahmad Muhammad Tursun. Avrangzeb Olamgir-ma'rifatli hukmdor. "Azon-kitoblari". T: 2021
2. Muhammad Mustaidxon Soqiy. Maosiri Olamgiri (Olamgirning xayrli ishlari). Tarjimon: Ilyos Nizomiddinov. T: 2013
- 3.Jihad at-Turboniy. Islom ummatining 100 buyuk shaxsi / Tarix yo'nalishini o'zgartira olgan islom ummatining 100 nafar buyuk shaxslari / Rahimjon Ali / tarjimonlar: Shokir Dolimov, Xursand Ahmedov. - O'sh: «Shams» nashriyot uyi. / Istanbul: 2020.
- 4.World Heritage Sites – Agra – Taj Mahal". Archaeological Survey of India